

**MAVLONA LUTFIY IJODINING O'RGANILISHI MUMTOZ ADABIYOT
VA ZAMONAVIY ADABIYOT KESIMIDA**

Normatova Lobar Dilshod qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Mavlono Lutfiy hayoti va ijodi haqida ma'lumot beriladi. Unda shoirning XIV asr oxiri — XV asrda yashab ijod qilgani, turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan iste'dodli shoirlardan biri ekani yoritiladi. Maqolada Lutfiy nomiga "Mavlono" unvonining qo'shilishi uning zamondoshlari tomonidan katta hurmat va e'tibor bilan e'tirof etilganidan dalolat berishi ta'kidlanadi. Shuningdek, Alisher Navoiy asarlarida Lutfiy ijodiga berilgan yuksak baho, uning turkiy tildagi devoni mashhurligi hamda she'riy merosi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Maqolada shoirning hayoti, tug'ilgan joyi haqidagi turli ilmiy qarashlar, uning asarlari va adabiy merosini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ham yoritilgan. Lutfiy ijodining o'zbek adabiyoti tarixidagi muhim o'rni alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Mavlono Lutfiy, mumtoz o'zbek adabiyoti, turkigo'y shoir, Alisher Navoiy, devon, g'azal, adabiy meros, XV asr adabiyoti, tazkira manbalari, o'zbek adabiyotshunosligi.

Annotation: This article provides information about the life and creative work of Mawlono Lutfiy, one of the prominent representatives of classical Uzbek literature. It highlights that the poet lived and worked in the late 14th and 15th centuries and was one of the talented poets who created works in both Turkic and Persian languages. The article emphasizes that the addition of the title "Mawlono" to Lutfiy's name indicates the great respect and recognition he received from his contemporaries. It also presents information about the high evaluation of Lutfiy's творчество in the works of Alisher Navoi, the popularity of his Turkic divan, and his poetic heritage. The article also discusses different scholarly views about the poet's life and birthplace, as well as research carried out on his works and literary heritage. The important role of Lutfiy's works in the history of Uzbek literature is particularly emphasized.

Keywords: Mavlono Lutfiy, classical Uzbek literature, Turkic poet, Alisher Navoi, divan, ghazal, literary heritage, 15th century literature, tazkira sources, Uzbek literary studies.

Аннотация: В данной статье представлена информация о жизни и творчестве Мавлоно Лутфия — одного из выдающихся представителей узбекской классической литературы. Отмечается, что поэт жил и творил в конце XIV — XV веках и был одним из талантливых поэтов, писавших на тюркском и персидском языках. В статье подчеркивается, что присоединение титула «Мавлоно» к имени Лутфия свидетельствует о высоком уважении и признании со стороны его современников. Также приводятся сведения о высокой оценке творчества Лутфия в произведениях Алишера Навои, известности его тюркского дивана и поэтического наследия. В статье рассматриваются различные научные взгляды на жизнь и место рождения поэта, а также исследования, посвященные его произведениям и литературному наследию. Особо подчеркивается важная роль творчества Лутфия в истории узбекской литературы.

Ключевые слова: Мавлоно Лутфий, узбекская классическая литература, тюркоязычный поэт, Алишер Навои, диван, газель, литературное наследие, литература XV века, тазкира, узбекское литературоведение.

Mumtoz adabiyotimizning yirik namoyondalaridan biri bo'lmish Mavlono Lutfiy XIV asrning oxiri — XV asrda yashab ijod qilgan turkigo'y shoirdir. Lutfiy ko'pincha «Mavlono» atamasi bilan birga tilga olinadi. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da Mavlono so'ziga shunday izoh berilgan: «Musulmon sharqida olim va fozil kishilarni, ustozlarni ulug'lab, ularning nomlariga qo'shib ishlatiladigan so'z». Demak, Lutfiy nomiga Mavlono so'zining qo'shilishi o'z zamondoshlarining yuksak e'tibori va hurmatidan dalolatdir. Shoir o'z davrida Sharqda juda shuhrat qozonadi. Bunga ko'plab misollarni keltirishimiz mumkin. Alisher Navoiy «Badoyi' ul-bidoya»ga yozilgan debochasida Sakkokiy va Lutfiy haqida shunday yozadi: «... birining shirin abyoti ishtihori Turkistonda bag'oyat va birining latif g'azaliyoti intishori Iroq va Xurosonda benihoyatdur ham devonlari mavjud bo'lg'ay». Ko'rinadiki, Sakkokiy ko'proq Movarounnahrda shuhrat topgan bo'lsa, Lutfiy Xuroson, Eron, Iroq tomonlarda shuhrat qozongan va devon tuzgan sanaladi.

Lutfiyning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar ko'p emas. Shoirning tug'ilgan va vafot etgan yillari 1366–1465–66-yillar deb ko'rsatiladi. A. Navoiyning «Majolis un-nafois» asarida yozilishicha, u 99 yil umr ko'rgan. Lutfiy nomi ba'zi manbalarda Lutfillo deb ataladi. Shunga ko'ra uning nomi Lutfillo bo'lib, shu asosda Lutfiy

taxallusini olgan degan xulosa keltiriladi. Lutfiyning tugʻilgan joyi Hirotning Dehikanor degan maskani deb koʻrsatilar edi. Professor A. Hayitmetov «Dilimizga juda yaqin» nomli maqolasida shunday maʼlumotlarni keltiradi: «Lutfiy asli shoshlik (boshqacha aytganda, toshkentlik) boʻlib, taqdir taqozosi bilan qachondir Hirotga borib, oʻsha yerda oʻrnashib qolgan», degan fikrlarni ilgari surgan.

Lutfiy haqida koʻpgina manbalarda maʼlumotlar qayd etilgan. Jumladan, Navoiyning «Majolis un-nafois», «Muhokamat ul-lugʻatayn», «Xutbai davovin», «Nasoyim ul-muhabbat», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Manoqibi Pahlavon Muhammad» singari asarlarida Lutfiyga yuqori baho berilgan. Navoiy «Majolis un-nafois»da shunday yozadi: «Mavlono Lutfiy oʻz davrining zamonining malik ul-kalomi erdi. Forsiy va turkiyda naziri yoʻq erdi. Ammo turkiyda shuhrati koʻproq erdi va turkcha devoni mashhurdir va muttazir ul-javob matlaʼlari bor. Ul jumladan biri bukim:

Noziklik ichra belicha yoʻq tori gisuyi,

Oʻz haddini bilib belidin oʻltirur quyi.

Yana biri budurkim:

Sayd etti dilbarim meni oshufta sochtin,

Soldi kamon boʻynima ikki qulochdin.

Va mavlononing «Zafarnoma» tarjimasida oʻn ming baytdin ortiqroq masnaviysi bor. Bayozda yozmagani uchun shuhrat tutmadi. Va lekin forsiyda qasidagoʻy ustodlardin koʻpning mushkul sheʼrlariga javob aytubdur va yaxshi aytibdur. 99 yashadi... Bu faqir borasida koʻp fohialar oʻqibdur. Umid ulkim, chun darvesh kishi erdi... Mavloloning qabri shahr navohisida Dehikanordakim, oʻz maskani erdi, andadur».

Lutfiy haqida Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro», Xondamirning «Habib us-siyar», «Makorim ul-axloq», Qobuliyning «Tazkirat ut-tavorix», Vozehning «Majmua ul-mansur va manzum», Shamsiddin Somening «Qomus ul-aʼlom» asarlarida ham maʼlumotlar uchraydi.

Oʻzbek adabiyotshunosligida Lutfiy merosini oʻrganish boʻyicha ancha ishlar amalga oshirildi. Bu jihatdan N. Mallayev, E. Rustamov, Hodi Zarif, Sodir Erkinov, E. Ahmadxoʻjayev, A. Hayitmetov, H. Rasulov va boshqa olimlarimizning tadqiqotlari xarakterlidir.

Lutfiydan juda katta adabiy meros qolgan. Qadimgi manbalarda uning 20 dan ortiq asar yozgani qayd etiladi. Ammo ular bizgacha hali nomaʼlum qolmoqda. Lutfiy

merosining kattagina qismini uning turkiy tildagi devoni tashkil etadi. Filologiya fanlari doktori, professor S. Erkinov Lutfiy haqidagi tadqiqotida qadimgi Sharq manbalarida Lutfiyning axloq-odob mavzusida «Mashkun ul-haqoyiq» nomli asar yozganligi eslatilishini qayd etadi. Shuningdek, xo‘tanlik Mulla Ismatullaning «Tarixi musiqiyun» asarida Lutfiyning musiqa tarixi bilan ham shug‘ullanganligi, kuylar bastalaganligi qayd etiladi. 100 yilga yaqin umr ko‘rgan shoir barakali ijod qilgani aniq. So‘nggi yillarda Lutfiy ijodi keng doirada o‘rganilib kelinmoqda. Lutfiy ijodini yoyishga bir qancha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Mavlono Lutfiy o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, u XIV asr oxiri — XV asrda yashab ijod qilgan iste’dodli turkigo‘y shoir sifatida adabiyot tarixida muhim o‘rin egallaydi. Uning turkiy va forsiy tillarda yaratgan asarlari, ayniqsa turkiy tildagi devoni o‘z davrida keng shuhrat qozongan. Alisher Navoiy va boshqa tarixiy manbalarda Lutfiy ijodiga berilgan yuksak baho shoirning adabiy salohiyati va nufuzidan dalolat beradi. Lutfiy o‘zining g‘azallari, masnaviylari va boshqa asarlari orqali o‘zbek mumtoz she’riyati rivojiga katta hissa qo‘shgan. Shoirning boy adabiy merosi, uning hayoti va ijodiga oid manbalar hamda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar Lutfiy ijodining o‘zbek adabiyoti tarixida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. T., 1966.
2. A.Hayitmetov. Meros va ixlos. T.,1987.
3. A.Hayitmetov. Dilimizga juda yaqin. O'z AS gazetasi. 1998 yil, 17 aprel.
4. E.Ahmadxojayev. Turkiy nazmning sehgari T., 1992.
5. Buyuk siymolar, allomalar. 2-kitob T., 1996.